

**YANGI O‘ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN MA’NAVIY
O‘ZGARISHLAR***Namangan davlat pedagogika instituti**Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrası**katta o‘qituvchisi **B.Tillayev****Namangan davlat pedagogika instituti**Texnologik ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi****Quchqarboyeva Ruxshona Sherzodjon qizi***

Yangi O‘zbekiston tamoyili asosida mamlakatda amalga oshirilayotgan tub islohotlar nafaqat iqtisodiy va siyosiy sohalarni, balki jamiyatning ma’naviy hayotini ham qamrab olmoqda. Ma’naviyat jamiyat taraqqiyotining poydevori, xalqning o‘zligini belgilovchi muhim omil sifatida qadrlanmoqda. Shu boisdan ham Yangi O‘zbekistonda ma’naviy sohadagi islohotlar keng qamrovli bo‘lib, ularning asosiy mazmun-mohiyati insonni ulug‘lash, milliy qadriyatlarni tiklash, yoshlar ongini yuksaltirish va barqaror fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan.

Bugungi kunda O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida ma’naviyatga bo‘lgan yondashuv tamomila yangicha asosda shakllanmoqda. Ma’naviy yangilanish deganda, birinchi navbatda, xalqning tarixiy xotirasini tiklash, milliy o‘zlikni anglash, boy madaniy merosimizni asrab-avaylash, uni yosh avlod ongiga singdirish jarayonlari tushuniladi. Mustaqillikdan keyingi yillarda bu yo‘nalishda muayyan natijalarga erishilgan bo‘lsa-da, aynan Yangi O‘zbekiston davrida bu boradagi ishlar tizimli, strategik va chuqur ijtimoiy mohiyat kasb eta boshladi. Avvalo, ma’naviy sohani rivojlantirishda davlat siyosati asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi. Prezident tomonidan ilgari surilgan “Yangi O‘zbekiston – Uchinchi Renessans sari” tamoyili asosida jamiyatda ilm-fan, ma’rifat, madaniyat va axloqiy qadriyatlar ustuvorlik kasb etmoqda. Bu g‘oya yosh avlodni yuksak ma’naviyatli, Vatanga sadoqatli, bilimli va barkamol etib tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Shu maqsadda ma’naviyat sohasini qo‘llab-quvvatlovchi davlat dasturlari, strategik yo‘nalishlar ishlab chiqilib, ularni amalga oshirish uchun tegishli muassasalar va institutlar faoliyati kuchaytirilmoqda.

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ma’naviy islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri bu xalqning milliy o‘zligini tiklash va uni mustahkamlashga qaratilgan harakatlardir. O‘zbekiston xalqi asrlar davomida shakllangan boy ma’naviy-madaniy merosga ega. Sohibqiron Amir Temur, Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek kabi buyuk ajdodlarimizning ilm-fan, adabiyot va falsafa sohasidagi xizmatlari nafaqat o‘z davrida, balki bugungi kunda ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yangi O‘zbekistonda ularning merosini chuqur o‘rganish, asarlarini tarjima qilish, xalqaro miqyosda targ‘ib etish ishlari keng ko‘lamda olib borilmoqda.

Bu esa xalqimizda o'z ajdodlari bilan faxrlanish, ulardan ibrat olish tuyg'ularini mustahkamlamoqda.

Ma'naviyatni rivojlantirishda ta'lim tizimining o'rni alohida ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'lim bosqichigacha bo'lgan barcha muassasalarda ma'naviyat darslari, tarbiya soatlari, ma'rifiy tadbirlar o'tkazilmoqda. Yoshlar ongiga milliy qadriyatlar, odob-axloq me'yorlari, ijtimoiy faollik va insoniylik tamoyillari singdirilmoqda. Shu bilan birga, ta'lim tizimida ma'naviyat bo'yicha metodik qo'llanmalar, adabiyotlar, video darslar ishlab chiqilmoqda. Tarbiyaviy ishlarning natijadorligini oshirish maqsadida pedagoglarning ma'naviy bilim darajasi va kasbiy salohiyatiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ma'naviy islohotlar doirasida ommaviy axborot vositalarining roli ham kuchaymoqda. Televideniye, matbuot, internet nashrlari orqali ma'naviy-ma'rifiy dasturlar, tarixiy filmlar, ijtimoiy tahlil va bahslar keng jamoatchilikka yetkazilmoqda. Ayniqsa, yoshlar orasida ijtimoiy tarmoqlar orqali milliy g'oya va ma'naviy qadriyatlarni targ'ib etish muhim vazifaga aylangan. Shu sababli davlat organlari va jamoatchilik tashkilotlari tomonidan ma'naviy immunitetni mustahkamlovchi kontentlar yaratish, yolg'on va zararli axborotlarga qarshi kurashish choralari ko'rilmogda.

Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga jalb etish maqsadida mamlakatda turli madaniyat markazlari, yoshlar klublari, kutubxonalar faoliyati jonlantirilmoqda. Ayniqsa, Prezident tashabbusi bilan yo'lga qo'yilgan "Yangi O'zbekiston – yoshlar nigohida", "Yoshlar daftari", "Kitobxonlik harakati" kabi dasturlar orqali yoshlar ma'naviy dunyoqarashi, adabiyotga qiziqishi, Vatanga muhabbati kuchaytirilmoqda. Kitobxonlik targ'iboti, ijodiy uchrashuvlar, ma'rifiy loyihalar orqali yoshlar orasida intellektual salohiyatni yuksaltirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Ma'naviy yangilanishning yana bir muhim jihati bu diniy-ma'rifiy sohani isloh qilishga qaratilgan choralardir. O'zbekiston ko'p asrlik islomiy madaniyatga ega mamlakat sifatida din va ma'naviyat uyg'unligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Islom dini – tinchlik, bag'rikenglik, mehr-oqibat dini ekani targ'ib qilinmoqda. Shu bilan birga, diniy ekstremizm va radikalizmga qarshi ma'rifiy kurash kuchaytirilgan. Diniy bilimlar berish, imom-xatiblar malakasini oshirish, masjid va madrasalarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yo'lga qo'yish orqali sog'lom diniy muhit shakllantirilmoqda. Bu esa jamiyatda diniy bag'rikenglik, totuvlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Oila va mahalla institutlari ham ma'naviy islohotlarning faol subyektiga aylangan. Oila jamiyatning ilk tarbiya maktabi bo'lishi nuqtai nazaridan, unda sog'lom muhit, o'zaro hurmat, axloqiy qadriyatlar ustuvorligiga erishish borasida ko'plab dasturlar ishlab chiqilgan. Mahallalarda esa "Ma'naviyat markazlari", "Ayollar

maslahat markazlari”, “Oila maktablari” orqali oilaviy muammolar, yoshlar muammolari bilan ishlash, ajrimlar, zo‘ravonlikning oldini olishga qaratilgan ishlar olib borilmoqda. Bu jarayonda mahalla faollari, nuroniylar, pedagoglar, psixologlar faol ishtirok etmoqda.

Milliy madaniyat, san’at va adabiyot sohalarida ham yangicha yondashuv shakllanmoqda. San’atkorlar, adiblar, rassomlar, kinorejissyorlar tomonidan xalq ma’naviyatini boyituvchi, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan asarlar yaratish, ularni keng jamoatchilik orasida targ‘ib etish ishlari qo‘llab-quvvatlanmoqda. Teatr, muzey, konsert zallari, ko‘rgazmalar orqali ma’naviy madaniyat targ‘ib qilinmoqda. Ayniqsa, yosh ijodkorlarning iste’dodini namoyish etishlari uchun ko‘plab tanlovlar, festivallar tashkil etilmoqda. Milliy bayramlar, tarixiy sanalarni nishonlashda esa xalqning birligini mustahkamlovchi, tarixiy xotirani yangilovchi tadbirlar o‘tkazilmoqda. Yangi O‘zbekiston sharoitida ma’naviy sohadagi islohotlar fuqarolarning ongini, tafakkurini, hayotga munosabatini o‘zgartirishga xizmat qilmoqda. Endilikda ma’naviyat faqat targ‘ibot, nasihat doirasidagina emas, balki hayotiy ehtiyoj, jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda. Har bir soha – ta’lim, sog‘liqni saqlash, iqtisodiyot, madaniyat, hatto sanoatda ham ma’naviy yondashuv asosiy mezonlardan biriga aylanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ma’naviy islohotlar jamiyatni yangilash, inson salohiyatini yuksaltirish, milliy o‘zlikni tiklash va yoshlarni barkamol avlod etib voyaga yetkazishga qaratilgan. Bu o‘zgarishlar xalqning ongi va dunyoqarashida ijobiy siljishlarga sabab bo‘lmoqda. Ma’naviyat jamiyat hayotining tayanchi, taraqqiyotimizning asosi bo‘lib, uning mustahkamligi kelajagimizning kafolati hisoblanadi. Yangi O‘zbekistonning yangi ma’naviy ko‘rinishi – bu xalqning o‘z kuchiga ishonchi, o‘z madaniyati va tarixiga bo‘lgan hurmati, ertangi kuniga ishonchi demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/3107036> 32-65- b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-sonli “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. <https://lex.uz/docs/3765586>.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi” (2019 yil 8 oktyabr) dagi PF – 5847 – son Farmoni. <https://lex.uz/docs/4545884> 25–40-b.